



*Til-
dil
tarjimoni*
O'zbek xalq
maqoli

1991-yildan
chiqa boshlagan.

2017-yil. 9-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz

USHBU SONDA



*Fidoying bo'lgaymiz
seni, O'zbekiston!*

O'qituvchi – buyuk
iste'dod himoyachisi


3-bet



*Fidoying bo'lgaymiz
seni, O'zbekiston!*

Adabiyot –
hayotbaxsh xilqat!

5-bet



*Adabiy
taqvim*

«Qoyalar – jim turgan
buyuk haqiqat»

32-bet



*Aktual'noye
slovo dnya*

Совершенствование
современной системы
образования

стр. 49



Методика. Опыт

Имя числительное
как часть речи

стр. 59



Kitob – yuksak ma'naviyat manbasi



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2017-yil. 9-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Hikmatilla RASHIDOV
Sirojiddin SAYYID
Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Shahnoza JO'RAYEVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.
Telefon: (0 371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 20.09.2017-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasini 10, 11 kegl. «KOLORPAK» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tum., Elbek 8.
Buyurtma №1424.
Adadi 8220 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

jurnali

REPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

MUNDARIJA

FIDOYING BO'LGAYMIZ SENI, O'ZBEKISTONI!

Munisjon Hakimov. O'qituvchi – buyuk iste'dod himoyachisi 3
Uldona Adurahmonova. Adabiyot – hayotbaxsh xilqat! 5

DARS – MUQADDAS

Oqila Muzaffarova. So'z turkumlari 8
Nilufar Karimova. Nisbatlar tilga kirganda 9
Maxfurat Otayeva. Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi 11
Dilobar Hayitova. Ezgu ish zamirida – ezguliklar mujassam 13

TEACHING ENGLISH

All about nothing 14
Bentham's Panopticon 15

TRENER MASHG'ULOTLARI

Nilufar Begibayeva. Writing task 5: the two essay structures 16

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Kamola Kuchkarova. Keys-stadi 20
Murodqosim Abdiyev. Davlat tili va yangi alifbo 22
Visola Nuriddinova. O'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish 24
Hamid Yodgorov. Harbiy terminlarning semantik usulda yasalishi 25
Husniddin Suyunov, Xolida Bozorova. Bobur hayoti va ijodi teleko'rsatuvlarda 26
Shahodat Ziyayeva. Fransuz va o'zbek tillari tovushlar tizimini qiyosiy o'rganish xususida 28
Gulhayo Qobilova. Ta'limda Kolb nazariyasi va uni tatbiq qilish zaruriyati 29
Dilnoza Nurmatova. Learning two main pronunciation concerns: rhythm and sentence stress 31

ADABIY TAQVIM

Asror Mo'min. "Qoyalar – jim turgan buyuk haqiqat" 32
Umarali Normatov. Ilk tarixiy sarguzasht roman 35
Yo'ldosh Solijonov. So'nmas ijod yolqini 37

TADQIQOTLAR

Dilnoza Jamoliddinova. Terminlarning lingvopoetik xususiyatlari 39
Farruxbek Olim. Navoiy ta'lim olgan asarlar 40
Khurshid Sarimsokov. Syntactical neologisms 43
Sherxon Qorayev. Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy kechalar 45
Marat Xojanov. Qoraqalpoq tilidagi ba'zi ormonimlarning etimologiyasi 46
Sultonbek Normamatov. Abdulla Qodiriyning tilshunoslikka oid qarashlari 48

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Галина Рахматуллаева. Совершенствование современной системы образования 49
Наргиза Атакулова. Мировоззренческая позиция ученика – основа духовно-нравственного воспитания 51

РЕФОРМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ДЕЙСТВИИ

Анаргул Колдыбекова. Стратегия подготовки кадрового потенциала педагогов в современных условиях 53
Алишер Назаров. Фонд «Истеъдод» как образовательная доминанта в подготовке кадров 54

АВТОРСКОЕ СЛОВО

Юлия Мусурманова. Как выразить совет, просьбу, приказ 56

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Наталья Дмитрусенко. Имя числительное как часть речи 59

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Саида Атавуллаева. Письменные и творческие задания для неязыковых факультетов 64

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Наргиза Шукурова. Чтение как важная составляющая часть в жизни обучающегося 67
Фарход Мирзаев. Лингвокультурологическая направленность обучения в языковом вузе 69
Илёс Шодиев. Развитие креативных способностей у растущего поколения в современных условиях 70

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Нафиса Насруллаева. Процесс гендерной концептуализации семантики фразеологических единиц английского языка 73
Севара Зуфарова. Категория наклонения в романских языках в сопоставлении друг с другом 74

МЕЖТЕКСТОВОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ

Нилуфар Закирова. Роль цитат в песенных текстах 76

АНОНС НОВОГО УЧЕБНИКА

Насирулла Миркурбанов. Чему должна научить литература? 78

ХРОНИКА

РЦНК на открытии классов русского языка в Узбекистане 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Yo'ldosh SOLIJONOV,
filologiya fanlari doktori, professor

SO'NMAS IJOD YOLQINI (Yozuvchi Omon Muxtor ijodiy portretiga chizgilar)

Taniqli adib va shoir Omon Muxtor adabiyotimizga o'tgan asrning 60-yillarida kirib keldi. Uning "Chorlar quyoshli yo'llar" nomli ilk she'riy to'plami o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Omon Muxtor o'z ijodida inson ichki kechinmalarini rang-barang bo'yoqlarda yangicha uslubda ochishga intildi.

Bu xususiyat keyinroq shoirning barcha she'rlarida ham o'z ifodasini topdi va bora-bora ijodining bosh uslubiga aylandi. Masalan, ilk to'plamining "Chorlar quyoshli yo'llar" deb atalishyoq lirik qahramon-shoirning kelajakka ishonch bilan qarashini, bu quyoshli yo'llarda uchraydigan soyalarni matonat bilan yengish niyatida yo'lga chiqqanini anglatib turibdi. "Ohang", "Yog'du", "Marvarid", "Shiddat" to'plamlari hamda "Do'stim, yonmoqdaman. Avvaldan", "Senga, Vatan", "Yuragim yong'inda ochilgan bir gul", "Isyon", "Uyg'onish" singari o'nlab she'rlarining nomlanishyoq shoir Omon Muxtor o'z umrini **yonib** yashashga, **yonib** ijod qilishga bag'ishlaganini ko'rsatadi.

Omon Muxtor she'rlari "orom va sukutni bilmay" dagan insonning jo'shqin faoliyati, otashin sevgisi, kurashi, dardi, tinimsiz intilishi, xullas, behalovat hayoti to'g'risidagi baravj qo'shiq bo'lib jaranglaydi. Jumladan, shoir o'zining "Shiddat" deb nomlangan she'rida: "Qonimda yashaydi Qirq besh yildan buyon Shiddatli bir g'alayon, suron; Halovat yo'q jismim, jonimda Qirq besh yildan buyon", – deb hayqirgan va o'zining ijodiy-estetik e'tiqodini quyidagi so'zlarda ifodalagan edi:

*Mening osmonimda ajib bir kalom.
Bosgan har qadamim, o'ylagan o'yim,
Ko'rgan-kechirganim, kuylagan kuyim –
Barchasi, barchasi qonimda yongan,
Qonimda yashagan she'rdan satrlar.*

Mazkur she'riyatda kuylangan obyektiv olam inson bilan mukammal. Mukammallik ramzi sifatida qalamga olingan bani odam vakillari goh ulug' Navoiy, goh isyonkor Mashrab, goh tinib-tinchimas Mirov, gohida urush tufayli besh o'g'lonidan ayrilgan, ammo ruhan tushkunlikka tushmagan Rahmonov, ba'zan arbob yoki oddiy fuqaro, ko'pincha esa shoir qiyofasida namoyon bo'ladi. Ularning barchasi oxir-oqibatda "Sukunatga bardoshi yo'q" kishilar timsoliga aylanadi. Chunki ularning biron-tasi ham "Yasholmaydi bu dunyoda hargiz suronsiz". Ana shu shiddat, suron shoir she'rlariga hayotbaxsh ohang ham bag'ishlaydi. Shu bois uning she'rlarida **yog'du, shu'la, nur, quyosh** timsollari ko'plab uchraydi.

O'zining yarim asrlik ijodi mobaynida Omon Muxtor nazmdan ko'ra nasrda samaraliroq ijod qildi. Bu haqda uning o'zi: "Avvaldan mening taqdirim shunday shakllandi: birinchi she'rlar to'plamim bilan izma-iz birinchi


hikoyalar to'plamim bosildi. Bu orada nazmdan ko'ra ko'proq nasriy kitoblarim bosilgan", – deb yozadi.

Darhaqiqat, adibning hikoya va lavhalardan iborat bo'lgan "Nigoh" ilk to'plami 1968-yilda bosilib chiqqan edi. Shundan so'ng birin-ketin "Qushlar va tushlar", "Shaharlik kelinchak", "Hayot darvozasi", "Buxorolik donishmand", "Bolalikka sayohat", "Vazifa" kabi hikoyalar to'plamlari, shoir Sulton Jo'ra hayotiga bag'ishlangan "Uchqur poyezdlar" nomli hujjatli qissasi va "Sherlok Xolms Buxoroda" degan umumiy nom ostida oltita qissadan iborat kitobi chop etildi. Adibning ikki jildlik "Saylanma"sining "Suratdagi yo'lbars" deb nomlangan kitobiga saksonga yaqin hikoyalari kiritilgan.¹ Yozuvchi o'zining kichik janrdagi asarlarida ko'proq ona shahri Buxoro va uning kishilari hayotini tasvirlashga urinadi.

Yozuvchi mustaqillik yillarida eng ko'p roman yozgan adib sifatida tanildi. Bu haqda uning o'zi suhbatlaridan birida: "Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillar ichida ijodkor sifatida o'z imkoniyatlarim darajasida harakat qilib, o'ndan ortiq romanlar, hikoyalar yozdim. Ilgari bunday asarlarni yozish u yoqda tursin, o'ylash ham mumkin emasdi", – degan edi. Chindan ham ilk romani "Yillar shamoli" bilan umrining oxiriga qadar o'tgan 36 yillik muddat ichida yuzlab she'rlar, o'nlab doston-u lavhalar, hikoya va qissalar, xotiralar, esselar, hangomalardan tashqari adibning "Egilgan bosh", "Ffu", "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Afлотun", "Maydon", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Navoiy va rassom Abulxayr" (dilogiya), "Odamlar kulishlari kerak", "Xotin podshoh", "Muhabbat o'limdan kuchli" nomli 12 ta romani bosilib chiqdi. Bularning har biri o'quvchilar va adabiy jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olindi va jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Sababi Omon Muxtor romanlarining deyarli barchasi bu janrning an'anaviy qoliplariga sig'masligi, ularning ham shaklan, ham mazmunan o'zgacha yaratilganligidir. Yozuvchi o'zi ifodalamoqchi bo'lgan doimiy va ko'hna mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galereyasi orqali inkishof etishga erishadi. Bu qahramonlar ayni chog'da o'tmish va bugun, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ikkilanish va jasorat, loqaydlik va g'ayrat, bilimdonlik va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini o'zida to'la mujassam etishadi.

Omon Muxtor romandan romanga tafakkuri ulg'ayib,



mahorati o'sib, qalami charxlanib bordi. Buni san'at-korning so'nggi yigirma yillikda yaratgan asarlarini qiyosiy tahlil etish orqali asoslash mumkin. Ular bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, har biri o'ziga xos qurilma va originallikka ega. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarida shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko'rinadi. Shartlilik ijodida turlicha rakurslarda namoyon bo'ladi. Ko'pchilik romanlarida sujet chizig'i *shartli detallar* asosiga qurilgan. Masalan, "Ming bir qiyofa"dagi *haydovchisiz avtobus, o'rmon, shamol, 9 qavatli bino*; "Ko'zgu oldidagi odam"dagi *ko'zgu, yomg'ir, choyxona, samolyot*; "Tepalikdagi xaroba"dagi *vayrona uy, qo'tir it, uch xil jasad, chakalakzor*; "Ffu"dagi *to'tiqush, tog'dagi qasr*; "Aflotun"dagi *quduq, sahro* kabi detallar sujet rivojiga uzluksiz ravishda turtki beradi va yechimga qadar harakatni ta'minlab turadi.

So'nggi yillarda Omon Muxtor polifonik romanlar ijodkori sifatida shuhrat qozongan edi. Uning deyarli barcha romanlari tuzilishi jihatidan ham, voqelikni bayon qilish usullari, tanlagan qahramonlarining o'ziga xosligi, sujet va kompozitsiya qurilishi bilan ham hech qanday qolipga tushmaydi. Eng muhimi, adib o'tgan asrning 90-yillarigacha o'zbek romanchiligida ustuvor bo'lib kelayotgan *monofonik* (bir ovoqli) bayonga asoslangan an'anaviy yo'ldan bormay, *polifonik* romanlar yaratilishiga hissa qo'shdi. Ammo bu polifonik romanlar o'z milliy ildizidan, ko'p yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan barhayot sifatlardan uzilib qolmadi. Aksincha, ular o'zigacha yaratilgan Sharq an'anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko'tardi, tarixiy-adabiy jihatdan ham, tuzilishi tomonidan ham xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi mavjud usullarni yodga soladi. Bu haqda adib munaqqid Ahmad Otaboyev bilan bo'lgan suhbatida shunday degan edi: "...o'zimizning qadimgi nasrimizni, ertak, rivoyatlarni oling. Uch boshli ajdarlar, devor yorilib, devmi yoki parining paydo bo'lishi... bunaqa sahnalar juda ko'p. Umuman, Sharq adabiyotida ham fantastika, detektiv, jahon adabiyotiga xos hamma belgilar bor. Inkori etmayman, G'arbdan ham o'rganaman, biroq Sharqdan ko'proq o'rgandim".² Demak, struktural ko'p qatlamlilik, ko'povozlilik o'zbek adabiyotiga begona emasligini Omon Muxtor o'z asarlari misolida badiiy jihatdan isbotlab bera oldi.

Yozuvchi romanlarining deyarli barchasi noan'anaviy shaklda qurilgani bilan e'tiborni tortadi. Xususan, polifoniya – ko'povozlilik muallif bayonining ichki strukturasida aniq ko'zga tashlanadi. Adib bayonida dialog alohida o'rin egallaydi, ya'ni har bir romanning boshlanishidayoq muallif o'zini ochiq namoyon qilib, o'quvchi bilan suhbatlashadi, bahslashadi, savol-javob qiladi. Roman drammatizmining dialogga asoslanganligi asarning kompozitsion qurilishida ham seziladi. Masalan, "Ming bir qiyofa" romani uch hikoyatdan tashkil topgan. Go'yo u uch parda, olti ko'rinishdan iborat dialoglashgan dramaga o'xshaydi. "Ko'zgu oldidagi odam" romani

esa ikki davraga bo'linadi. "Kirish" bilan boshlangan har bir davra teppa-teng uch sahifadan tashkil topgan. Har bir sahifa o'n bobdan iborat bo'lib, jami 30 bobni tashkil etadi. Yil, oy, kunlarni eslatuvchi bu raqamlar o'ta ramziydir.

"Tepalikdagi xaroba" romani esa baayni dramani eslatadi. Asar boshlanishidayoq muallif xuddi dramaturg singari "Voqea ishtirokchilari to'g'risida qisqacha ma'lumot" beradi. Unda ishtirok etuvchilarning ismi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy hayoti, sa'jyasi haqida axborot beriladi. Keyingi voqealar davomida ularga alohida ta'rif berib o'tirilmaydi, aksincha harakatga solinadi. Xuddi dramadagi kabi ular dialog orqali bosh g'oyaga yo'naltiriladi. Ichki ziddiyat esa bayon qilinayotgan voqealar zamirida kuchaygandan kuchayib boraveradi. Muallif izohlari ham dramatik remarkalar singari ixcham va qahramonning harakat-holatini ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'ladi. Roman boshlanishidanoq dialog ichki ziddiyatlarga to'laligi, savol-javob asosiga qurilganligi bilan butun bayon strukturasiga hukmini o'tkazadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 18 yilligi arafasida (2009-yili) yozuvchi "Navoiy va rassom Abulxayr" romani uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. "Ishq ahli" va "Buyuk farrosh" nomli ikki kitobdan iborat bu roman-dilogiyani Omon Muxtorning ma'naviy jasorati sifatida baholash o'rindir. Ushbu asar Oybekning "Navoiy" romanidan mavzu va muammoning qo'yilishi, obrazlarning tanlanishi, sujeti va kompozitsiyasi, badiiy nutq xususiyatlari jihatidan ham tubdan farq qiladi. Zero, unda hazrat Navoiyning hayoti va ijodiy yo'li to'g'risida o'ziga xos usulda ma'lumotlar berish, asarlaridan shoir tarjimai holiga oid fakt va detallarni topish hamda ular ustida ham badiiy, ham ilmiy mulohaza yuritish romanning asosiy g'oyaviy-estetik mohiyatini tashkil etadi. Roman o'zining sujeti va kompozitsion qurilishi, konflikti, qahramonlar xarakterining ishlanishi nuqtayi nazaridan ham adib qalamiga mansub bo'lgan boshqa asarlarga o'xshamaydi. Unda keskin to'qnashuvlar, Omon Muxtor ijodiy uslubiga xos burama va shartli epizodlar yoki sujet chiziqdari uchramaydi.

Asar buyuk mutafakkir Navoiyni anglash, uning ijodini his qilish haqidadir. Bu maqsadini amalga oshirish uchun muallif romanda tadqiqotchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Buning uchun yozuvchi Navoiy asarlarini mukammal o'rganishga, shoirning ijod laboratoriyasiga chuqur kirib borishga urinadi, olgan taassurotlaridan kelib chiqib, shoir ruhiyatini anglagan holda talqin qiladi. Navoiyning g'azal, muxammas, qit'a va fardlarida ilgari surgan fikrlari orqali cheksiz tafakkur olamiga kirib boradi.

Xullas, Omon Muxtor ijodiga xos sifatlarni nazariy poetikaning yangicha tamoyillari asosida o'rganish hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi fani oldiga jiddiy tadqiqotlar olib borish vazifasini qo'yimoqda.

¹Omon Muxtor. Saylanma. Ikkinchi jild. T.: Sharq. 2012.

²O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1998-yil, 6-mart.